

O'ZBEK OLAMINING LISONIY MANZARASIDA BOYLIK KONSEPTINING MODDIY VA MA'NAVIY MAZMUNI

Qodirova Nozima G'ulomjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21235412>

Annotatsiya

Mazkur tezisda o'zbek olamining lisoniy manzarasida boylik konseptining moddiy va ma'naviy mazmuni lingvokognitiv hamda lingvomadaniy yondashuv asosida tadqiq etiladi. Boylik konseptining xalq tafakkurida shakllanishi, uning milliy qadriyatlar tizimidagi o'rni, moddiy va ma'naviy qirralari leksik, frazeologik hamda paremiologik birliklar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, Oybekning "Qutlug' qon" hamda O'tkir Hoshimov asarlarida boylik konseptining badiiy ifodalanish xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari boylik konsepti o'zbek olamining lisoniy manzarasida nafaqat iqtisodiy farovonlikni, balki ilm, qanoat, saxovat, halollik va ma'naviy kamolotni ham ifodalovchi murakkab lingvomadaniy birlik ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar

olamning lisoniy manzarasi, konsept, boylik konsepti, lingvokognitologiya, lingvomadaniyat, qadriyat, moddiy boylik, ma'naviy boylik, paremiologiya, frazeologiya.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda til faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki xalqning tafakkuri, madaniyati va qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. Antropotsentrik yondashuvning rivojlanishi natijasida olamning lisoniy manzarasi, konsept va lingvomadaniyat kabi tushunchalar tilshunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, milliy tafakkurda muhim o'rin tutuvchi konseptlarni o'rganish orqali muayyan xalqning dunyoni qanday idrok etishi va baholashi aniqlanadi.

Olamning lisoniy manzarasi xalqning tarixiy tajribasi, diniy qarashlari, urf-odatlar va qadriyatlar tizimining til vositasida ifodalanishidir. Har bir xalq borliqni o'z mentaliteti asosida qabul qiladi va bu jarayon til birliklarida aks etadi. Shu jihatdan boylik konsepti ham o'zbek xalqining olamning lisoniy manzarasida muhim konseptlardan biri hisoblanadi.

Boylik tushunchasi ko'pchilik tomonidan, avvalo, moddiy farovonlik, mol-mulk va pul bilan bog'lanadi. Biroq o'zbek xalqining milliy tafakkurida ushbu konsept ancha keng mazmunga ega. Xalq ongida boylik nafaqat iqtisodiy imkoniyatlarni, balki ilm, hunar, sog'liq, farzand, qanoat, saxovat, halol mehnat, ota-ona duosi va ma'naviy kamolotni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli boylik konsepti o'zbek olamining lisoniy manzarasida moddiy va ma'naviy komponentlarning uyg'unligi asosida shakllangan murakkab konseptual birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Boylik konseptining mazmunini ochishda leksik birliklar, frazeologizmlar, maqol va matallar hamda badiiy adabiyot namunalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Oybek va O'tkir Hoshimov asarlarida boylik turli qirralari bilan tasvirlanib, xalqning unga nisbatan shakllangan munosabati badiiy vositalar orqali yoritiladi. Bu esa boylik konseptining faqat iqtisodiy kategoriya emas, balki milliy madaniyat va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi lingvomadaniy birlik ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek xalqining dunyoqarashida moddiy boylik insonning hayot kechirishi, oilasini ta'minlashi va jamiytdagi mavqeini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ammo xalq tafakkurida boylikning qiymati uning miqdori bilan emas, balki qanday yo'l bilan topilgani va

qanday maqsadlarda sarflanishi bilan belgilanadi. Halol mehnat evaziga orttirilgan boylik yuksak qadrlansa, hiyla, ochko'zlik yoki adolatsizlik orqali qo'lga kiritilgan boylik salbiy baholanadi. Demak, boylik konseptining mazmuni xalqning axloqiy va ma'naviy mezonlari bilan uzviy bog'liqdir.

Shu bilan birga, o'zbek xalqining qadriyatlar tizimida ma'naviy boylik moddiy boylikdan ustun qo'yiladi. "Ilm – bitmas boylik", "Qanoat – tuganmas davlat", "Mol topsang saqla, hunar topsang asra" kabi maqollar xalqning haqiqiy boylikni bilim, hunar va ma'naviy yetuklik bilan bog'lashini yaqqol namoyon etadi. Bunday birliklar boylik konseptining moddiy va ma'naviy qatlamlari o'zaro uyg'un holda shakllanganligini ko'rsatadi.

Mazkur tezisda boylik konseptining o'zbek olamining lisoniy manzarasidagi moddiy va ma'naviy mazmuni badiiy matnlar, leksik birliklar hamda milliy qadriyatlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi boylik konseptining konseptual mazmunini ochish, uning moddiy va ma'naviy qirralarini aniqlash hamda o'zbek xalqining boylik haqidagi lingvomadaniy tasavvurlarini yoritishdan iborat.

Asosiy qism

O'zbek olamining lisoniy manzarasida boylik konsepti, avvalo, moddiy farovonlikni anglatuvchi konsept sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur konsept xalqning tarixiy turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati va ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, pul, yer, mulk, savdo, chorva, uy-joy kabi moddiy ne'matlar orqali ifodalanadi. Biroq o'zbek xalqining lisoniy ongida boylik faqat moddiy resurslarning mavjudligi bilan emas, balki ularning inson hayotidagi ahamiyati, jamiyatdagi mavqeni belgilashi hamda halol mehnat orqali orttirilishi bilan ham baholanadi.

O'zbek xalqining tarixiy taraqqiyotida yer qadimdan eng muhim boylik manbalaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Dehqonchilik va chorvachilik xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari bo'lganligi sababli yer nafaqat iqtisodiy resurs, balki oilaning farovonligi, avlodlar davomiyligi va ijtimoiy barqarorlik ramzi sifatida qadrlangan. Shu bois xalq tafakkurida yerga egalik qilish boylikning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblangan.

Bu holat Oybekning "Qutlug' qon" romanida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Asarda Mirzakarimboy Yo'lchiga yerning puldan ustun boylik ekanligini quyidagi hikmatli fikr orqali tushuntiradi: "Yer olgan ko'karadi, yer sotgan quriydi." Mazkur jumlada yer insonni boqadigan, kelajakni ta'minlaydigan va doimiy daromad manbai bo'lgan moddiy boylik sifatida talqin qilinadi. Aksincha, yerni sotish vaqtinchalik foyda keltirsa-da, insonni barqaror hayot manbaidan mahrum etishi ta'kidlanadi. Ushbu misolda yer konsepti boylikning eng qimmatli moddiy ko'rinishlaridan biri sifatida konseptuallashtirilgan.

Asarda pul va yer o'rtasidagi munosabat ham alohida yoritiladi. Mirzakarimboy pulning o'tkinchi xususiyatini ta'kidlab shunday deydi: "Pul asov qushga o'xshaydi, sal bo'sh tutdingmi, qo'lingdan uchadi." Mazkur metafora orqali pulning beqarorligi va vaqtinchalik boylik ekani ifodalanadi. Yer esa insonni tark etmaydigan, mehnat orqali yana boylik yaratadigan resurs sifatida baholanadi. Bu esa o'zbek xalqining olamning lisoniy manzarasida moddiy boylikning qadri uning davomiyligi va foyda keltirish xususiyati bilan belgilanishini ko'rsatadi.

Boylik konseptining moddiy mazmuni ko'pincha mulk va savdo faoliyati bilan ham ifodalanadi. Oybek Mirzakarimboy obrazini tasvirlar ekan, uning jamiyatdagi mavqeini bevosita moddiy boylik vositalari orqali ochib beradi: "U Toshkentning eng oldingi boylaridan." Mazkur jumla qahramonning nafaqat badavlat inson, balki iqtisodiy jihatdan kuchli

va jamiyatda yuqori mavqega ega shaxs ekanligini bildiradi. Bu yerda boy leksemasi oddiy iqtisodiy holatni emas, balki ijtimoiy nufuz va ta'sir doirasini ham ifodalab kelmoqda.

Asarda Mirzakarimboyning mulki batafsil sanab o'tiladi: "Toshkentning eski va yangi shaharlarida to'plab sotuvchi ikki gazlama do'koni, Turkiston o'lkasining turli shaharlarida katta-kichik ayrim do'konlar, Toshkent tevaragidagi turli mavzelarda yer-suv unga qaraydi." Mazkur parcha boylik konseptining moddiy maydonini tashkil etuvchi asosiy birliklarni yaqqol namoyon qiladi. Do'kon, yer-suv, savdo kabi birliklar iqtisodiy farovonlikni anglatrsa, ularning ko'pligi boylik darajasining yuqoriligini bildiradi. Shu bilan birga, boylikning miqyosi insonning jamiyatdagi obro'si va iqtisodiy salohiyatini ham belgilab beradi.

Muallif Mirzakarimboyning hashamatli hayot tarzini tasvirlar ekan, quyidagi ifodani qo'llaydi: "Dang'illama darvoza. O'sha Iskandar Zulqarnayn ham bunaqa qo'rg'on solgan emas." Mazkur tasvirda dang'illama darvoza oddiy qurilish elementi emas, balki hashamat, qudrat va moliyaviy imkoniyat timsoli sifatida qo'llangan. Iskandar Zulqarnayn obraziga murojaat qilinishi esa mubolag'a vositasida boylikning nihoyatda yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi. Shu tariqa moddiy boylik me'moriy obyektlar orqali ham ifodalanadi.

Boylik konseptining moddiy mazmunini ifodalovchi yana bir muhim birlik savdo faoliyati bilan bog'liqdir. Mirzakarimboyning katta o'g'li haqida: "Hakimboyvacha yirik paxta savdosi bilan mashg'ul." deya ta'kidlanadi. Mazkur misolda **paxta savdosi** iqtisodiy qudrat va kapitalning asosiy manbalaridan biri sifatida tasvirlangan. Savdo faoliyati boylikni yaratish vositasi sifatida konseptual maydonga kiradi va xalq ongida tadbirkorlik bilan bog'liq ijobiy tasavvurlarni shakllantiradi.

Boylik konseptining moddiy qirralari vaqt o'tishi bilan yangi ramzlar bilan ham boyib borgan. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasida" romanida boshqarma boshlig'ining "Moskvich" avtomobilida yurishi alohida ta'kidlanadi. Hozirgi davrda oddiy avtomobil hisoblangan ushbu transport vositasi o'z davrida yuqori moddiy imkoniyat va ijtimoiy mavqening belgisi bo'lgan. Demak, boylikni ifodalovchi moddiy belgilar tarixiy davrga qarab o'zgarib boradi, biroq ularning jamiyatdagi nufuz belgisi sifatidagi funksiyasi saqlanib qoladi.

Shunday qilib, o'zbek olamining lisoniy manzarasida boylik konseptining moddiy mazmuni yer, pul, mulk, savdo, do'kon, uy-joy, hashamatli darvoza, avtomobil kabi birliklar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu birliklar faqat iqtisodiy farovonlikni emas, balki insonning jamiyatdagi mavqei, obro'si va turmush tarzini ham ifodalaydi. Biroq xalq tafakkurida moddiy boylikning qadri uning miqdori bilan emas, balki halol mehnat orqali orttirilishi va jamiyat manfaatiga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan boylik konseptining moddiy mazmuni o'zbek xalqining qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan.

O'zbek olamining lisoniy manzarasida boylik konsepti faqat moddiy ne'matlar bilan cheklanmaydi. Xalq tafakkurida boylikning eng muhim qirralaridan biri uning ma'naviy mazmunidir. O'zbek xalqining qadriyatlar tizimida ilm, odob, qanoat, saxovat, halollik, mehr-oqibat, sog'liq, ota-ona roziligi va farzand kabi tushunchalar ham boylik sifatida baholanadi. Shu sababli boylik konsepti moddiy va ma'naviy komponentlarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllangan murakkab lingvomadaniy birlik hisoblanadi.

Milliy tafakkurda insonning haqiqiy boyligi uning mol-mulkida emas, balki ma'naviy kamolotida namoyon bo'ladi. Xalq orasida keng qo'llaniladigan "Ilm – bitmas boylik", "Qanoat – tunganmas davlat", "Mol topsang saqla, hunar topsang asra", "Odob – insonning ziynati" kabi maqollar ham aynan mana shu konseptual mazmunni ifodalaydi. Ushbu paremiologik

birliklarda boylik moddiy ne'matlar bilan emas, balki insonning bilimi, hunari va axloqiy fazilatlarini bilan bog'lanadi. Demak, o'zbek olamining lisoniy manzarasida ma'naviy boylik moddiy boylikdan ustun qo'yiladi.

Boylik konseptining ma'naviy mazmuni badiiy adabiyotda ham keng ifodalangan. O'tkir Hoshimov asarlarida insonning haqiqiy boyligi uning mehribonligi, halolligi va insoniy fazilatlarini orqali namoyon bo'ladi. Muallif ko'plab obrazlarni tasvirlar ekan, moddiy jihatdan kambag'al bo'lsa-da, ma'naviy jihatdan boy insonlarni yuksak qadrlaydi. Bu esa xalqning boylik haqidagi tasavvuri moddiy imkoniyatlardan ko'ra axloqiy mezonlarga ko'proq asoslanishini ko'rsatadi.

O'zbek xalqining olamning lisoniy manzarasida saxovat ham boylik konseptining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalq orasida boylik faqat o'z manfaatiga xizmat qiladigan vosita emas, balki boshqalarga yaxshilik qilish, ehson qilish va muhtojlarga yordam berish imkoniyati sifatida ham talqin etiladi. Shu bois saxiy insonlar xalq orasida hurmat qozongan bo'lsa, ochko'zlik va baxillik salbiy baholangan. Bu holat boylik konseptining axloqiy komponenti kuchli ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek xalqining diniy qarashlari ham boylik konseptining ma'naviy mazmunini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Islom ta'limotida halol rizq topish, mehnat qilish, zakot va sadaqa berish ulug' fazilat sifatida e'tirof etiladi. Natijada xalq ongida boylik halol mehnat mahsuli bo'lsa qadrlanadi, adolatsiz yo'l bilan topilgan boylik esa salbiy baholanadi. Demak, boylikning qadri uning miqdori bilan emas, balki kelib chiqish manbai va undan foydalanish madaniyati bilan belgilanadi.

Shuningdek, o'zbek xalqining olamning lisoniy manzarasida farzand ham eng katta boyliklardan biri sifatida konseptuallashtirilgan. Xalq orasida "Farzand – davlat", "Farzandli uy – bozor, farzandsiz uy – mo'zora" kabi maqollar keng qo'llaniladi. Ushbu birliklar moddiy boylikdan ko'ra oilaviy baxt va avlod davomiyligi xalq uchun ustuvor qadriyat ekanligini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, sog'liq, tinchlik va xotirjamlik ham insonning bebaho boyligi sifatida baholanadi.

Boylik konseptining ma'naviy mazmuni qanoat tushunchasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. O'zbek xalqining qadriyatlar tizimida qanoatli inson boy inson sifatida talqin qilinadi. Chunki qanoat insonni ochko'zlikdan saqlaydi, halol mehnat qilishga undaydi va ma'naviy barkamollikka yetaklaydi. Shu sababli xalq ongida boylikning eng oliy ko'rinishi insonning qalb boyligi, odobi va ilmidir.

Umuman olganda, o'zbek olamining lisoniy manzarasida boylik konseptining ma'naviy mazmuni ilm, hunar, saxovat, qanoat, sog'liq, farzand, halollik va mehr-oqibat kabi milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Mazkur konsept xalqning dunyoqarashi va axloqiy mezonlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Boylikning haqiqiy qiymati uning moddiy hajmi bilan emas, balki insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qilishi orqali belgilanadi.

Boylik konseptining milliy-madaniy mazmunini aniqlashda badiiy adabiyot muhim manbalardan biri hisoblanadi. Badiiy matnlarda xalqning dunyoqarashi, qadriyatlarini va baholash mezonlarini til vositalari orqali aks etadi. Ayniqsa, Oybek va O'tkir Hoshimov asarlarida boylik konsepti turli lingvistik birliklar yordamida ifodalanib, uning moddiy va ma'naviy qirralari o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Mualliflar boylikni faqat iqtisodiy imkoniyat

sifatida emas, balki insonning xarakteri, ijtimoiy mavqei, axloqiy qiyofasi va hayotiy qarashlari bilan uzviy bog'liq konsept sifatida tasvirlaydilar.

Oybekning "Qutlug' qon" romanida Mirzakarimboy obrazi boylik konseptining yorqin badiiy timsolidir. Muallif qahramonning boyligini uning ko'plab do'konlari, yer-suvlari va savdo faoliyati orqali ko'rsatish bilan birga, boylikning inson xarakteriga ta'sirini ham ochib beradi. Asarda: "Mirzakarimboy ilonning yog'ini yalagan odam edi." degan tasvir qo'llanadi. Ushbu frazeologizm xalq tilida nihoyatda ayyor, manfaatini yaxshi biladigan va har bir ishni puxta hisoblaydigan kishiga nisbatan ishlatiladi. Demak, muallif boylik konseptini faqat ijobiy emas, balki tanqidiy baholash orqali ham yoritadi. Bu holat o'zbek olamining lisoniy manzarasida boylikning axloqiy mezonlar asosida baholanishini ko'rsatadi.

Boylik konseptining badiiy ifodasida metafora, mubolag'a, frazeologizm va ramziy birliklar muhim uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Xususan, "Dang'illama darvoza", "Pul asov qushga o'xshaydi", "Yer olgan ko'karadi" kabi ifodalar boylikning moddiy mazmunini obrazli tarzda ochib beradi. Ushbu birliklar orqali boylik xalq ongida shunchaki iqtisodiy tushuncha emas, balki ijtimoiy nufuz, barqarorlik va farovonlik timsoli sifatida konseptuallashganini kuzatish mumkin.

O'tkir Hoshimov ijodida esa boylik konsepti ko'proq ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Muallif insonning haqiqiy boyligi uning halolligi, vijdoni, mehr-oqibati va saxovatida ekanligini turli obrazlar orqali ifodalaydi. Shu sababli yozuvchi asarlarida moddiy boylik ko'pincha ma'naviy mezonlar bilan qiyoslanadi. Bu esa o'zbek xalqining olamning lisoniy manzarasida boylikning eng oliy ko'rinishi insonning ma'naviy barkamolligi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Badiiy matnlarda boylik konsepti leksik birliklar bilangina emas, balki frazeologik iboralar, maqollar va hikmatli so'zlar orqali ham ifodalanadi. "Ilm – bitmas boylik", "Qanoat – tunganmas davlat", "Mol topsang saqla, hunar topsang asra" kabi maqollar xalqning boylik haqidagi qadriyatlarini aks ettiradi. Mazkur paremiologik birliklarda boylikning moddiy emas, balki ma'naviy mohiyati ustuvor ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu jihatdan maqollar va hikmatli iboralar boylik konseptining aksiologik mazmunini yorituvchi muhim lingvistik vositalar hisoblanadi.

Umuman olganda, badiiy matnlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek olamining lisoniy manzarasida boylik konsepti ko'p qatlamli mazmunga ega. U moddiy farovonlikni anglatuvchi iqtisodiy tushuncha bo'lish bilan birga, xalqning ma'naviy qadriyatlari, axloqiy qarashlari va milliy mentalitetini ham o'zida mujassamlashtiradi. Boylik konseptining badiiy ifodasi orqali xalqning borliqni idrok etish usuli, qadriyatlar tizimi va baholash mezonlari yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Xulosa

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'zbek olamining lisoniy manzarasida boylik konsepti ko'p qirrali va murakkab konseptual birlik hisoblanadi. Mazkur konsept faqat moddiy ne'matlar yoki iqtisodiy farovonlikni emas, balki xalqning milliy qadriyatlari, tarixiy tajribasi, madaniyati va dunyoqarashini ham o'zida mujassamlashtiradi.

Tadqiqot davomida boylik konseptining moddiy mazmuni yer, pul, mulk, savdo, uy-joy va boshqa iqtisodiy birliklar orqali ifodalanishi aniqlandi. Shu bilan birga, xalq tafakkurida boylikning haqiqiy mezoni uning miqdori emas, balki halol mehnat orqali orttirilishi va jamiyat manfaatiga xizmat qilishi bilan baholanishi kuzatildi.

Shuningdek, boylik konseptining ma'naviy mazmuni ilm, hunar, qanoat, saxovat, halollik, sog'liq va farzand kabi milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'langanligi tahlillar orqali asoslandi. O'zbek xalqining olamning lisoniy manzarasida aynan ma'naviy boylik moddiy boylikdan ustun qo'yilishi xalq maqollari, frazeologik birliklar va badiiy matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Oybekning "Qutlug' qon" hamda O'tkir Hoshimov asarlarining lingvokognitiv tahlili boylik konseptining turli semantik qatlamlarini ochib berdi. Mazkur asarlarda boylik konsepti moddiy farovonlik bilan bir qatorda axloqiy fazilatlar, ijtimoiy mavqe va ma'naviy barkamollik bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlangan.

Demak, boylik konsepti o'zbek olamining lisoniy manzarasida xalqning qadriyatlar tizimi, milliy mentaliteti va madaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy konseptlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Аюпов Р.Х. Бойлик ва қашшоқлик фалсафаси. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2018. – 84 б.
2. Давлатов С. Бой ва камбағал одамларнинг фикрлаш стратегияи. – Тошкент: MATRIX, 2019. – 308 б.
3. Ирискулов М. Т. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 262 б.
4. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор нашриёти, 2006. – 92 б.
5. Oybek. Qutlug' qon. Asarlar. Uch tomlik. Uchinchi tom. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1969.
6. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2012.
7. Хошимов Ў. Дафтар хошиясидаги битиклар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.
8. Jane Austen. Pride and Prejudice. – E-BooksDirectory.com. – 512 p.